

“Uzbekistan Airways” Aloqa markazi 7/24 ish faoliyatiga o‘tdi

2021 1 Iyul

2021-yilning 1-iyulidan “Uzbekistan Airways” AJ Aloqa markazi yo‘lovchilar uchun 24 soatlik ish faoliyatiga o‘tdi. Uzbekistan Airways Axborot xizmati xabar berishicha, endilikda fuqarolar markaz mutaxassislari bilan kunning istalgan vaqtida bog‘lanib, haftada 7 kun, shu jumladan bayram kunlari ham kerakli ma‘lumotlarni olishlari mumkin.

Shuni ta‘kidlash kerakki, +99878 140 02 00 raqami orqali yo‘lovchilar COVID-19 talablari, aviachiptalarning mavjudligi va narxi, respublika bo‘ylab va xalqaro parvozlarning jadvali, oldindan maxsus taom buyurtma qilish yoki bagaj tashish me‘yorlari, ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan parvoz qilish va ular uchun maxsus yo‘l beshiklariga buyurtma berish haqidagi ma‘lumotlarni olishlari mumkin.

Statistikaga ko‘ra, axborot-ma‘lumot olish masalalari bo‘yicha aloqa markaziga kuniga mingga yaqin qo‘ng‘iroqlar kelib tushadi.

“Uzbekistan Airways” AJ Axborot xizmati